Siqilgan tabiiy gazni etkazib berish
**SHARTNOMASI № 21**

«17» yanvar 2022y. Toshkent sh.

**"GULSARA LYUKS" MChJ** Ustavi asosida ish yurituvchi direktori Zahidov X.X. bundan keyin "TA'MINOTCHI" deb yuritiladi, bir tomondan va o'z Nizomi asosida ish olib boruvchi "Tour Been TUTK" direktori X. Xaigapob bundan keyin "ISTE'MOLCHI" deb yuritiladi, ikkinchi tomondan, ushbu shartnomani quyidagi mazmunda tuzdilar:

## 1. SHARTNOMA PREDMETI.

**1.1.** "TA'MINOTCHI" avtotransport vositalariga gaz quyish shaxobchasi orqali "ISTE'MOLCHIGA" gaz balloni bilan jihozlangan avtotransport vositalariga siqilgan tabiiy gaz (STG) sotish majburiyatini oladi va "ISTE'MOLCHI" esa siqilgan tabiiy gazni to'lovuni amalga oshirib belgilangan hajm va muddatlarda qabil qilish majburiyatini oladi:

| Mahsulotning nomlanishi | Birlik o'lchovlari | Ta'minot bir yilga | Shu jumladan | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | 1 chorak | 2 chorak | 3 chorak | 4 chorak |
| Gaz balloni bilan jihozlangan avtotransport vositalari uchun siqilgan tabiiy gaz | Kub.m. | 700 | 700 | | | |

**1.2.** "ISTE'MOLCHI" avtotransport vositalariga STG yoqilg'isini quyish sanasi STG bilan ta'minlash sanasi hisoblanadi.

## 2. TO'LOV TARTIBI.

**2.1.** Shartnomani tuzish paytidagi umumiy summasi 1890000 so'm. Shartnomaning yakiniy summasi taqdim etilgan chet-fakturalar yugindisidan kelib chiqadi.

**2.2.** STG yoqilg'isi uchun to'lov 1 kub.m uchun QQS va aktsiz solig'i bilan birga **2700** so'm qilib belgilanadi. STG yoqilg'isining narxi xomashyo, yoqilg'i-energetika resurslarining o'zgarishi, O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari (qarorlari) tufayli bir tomonlama tartibda o'zgartirilishi mumkin.

**2.3.** STG yoqilg'isini tarqatish (yoqilg'i quyish) belgilangan shakldagi taqsimlash varaqlari bo'yicha (O'zdavneftegazinspektsiyasining 25.12.2009 yildagi 01/07-1220-son qarori) oldindan 100% to'lov va pul mablag'lari "TA'MINOTCHINING" hisob raqamiga kelib tushgandan keyin amalga oshiriladi.

**2.4** "ISTE'MOLCHI" tomonidan har chorakda e'lon qilingan STG yoqilg'isi hajmi summasining kamida 15% miqdorini oldindan to'lovi amalga oshirilgan chog'da "TA'MINOTCHI" STG yoqilg'isi sotishi huquqiga ega. Bu xolatda "ISTE'MOLCHI" qolgan summani, transport vositalariga yoqilg'i quyish kunidan boshlab 7 kun ichida to'lashi shart.

## 3. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURATLARI.

**3.1.** "ISTE'MOLCHI" gaz uskunalari bilan jihozlangan avtotransport vositalarining texnik holati va ulardan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga rioya etilishi, shuningdek, yong'in, sanitariya va ekologik xavfsizlik me'yorlariga rioya etilishi uchun javobgardir.

**3.2.** "TA'MINOTCHI" va "ISTE'MOLCHI" gaz hajmining o'rtacha kunlik normasi doirasida chorak davomida teng ravishda STG yoqilg'isi quyib berishlari va olib qo'yishlari shart.

**3.3.** Gazning belgilangan joriy hajmidan ortiq STG yoqilg'isi sotib olish tomonlarning qo'shimcha kelishuvi bilan rasmiylashtiriladi.

**3.4.** "TA'MINOTCHI" tomonidan asbob-uskunalarni joriy ta'mirlashni amalga oshirganda, "TA'MINOTCHI" "ISTE'MOLCHINI" kamida 3 kun oldin, kapital ta'mirlash ishlari olib borilgan taqdirda esa gaz quyish shahobchasida ish to'xtatilishidan kamida 10 kun oldin ogohlantiradi.

**3.5. «ISTE'MOLCHI» quyidagilarga majbur:**

a) STG dan foydalanish va gaz uskunalari bilan jihozlangan transport vositalarini ishlatish bo'yicha amaldagi qoidalar, spetsifikatsiyalar, ko'rsatmalar va qoidalarga rioya qilish;

b) STG yoqilg'isini quyish uchun avtotransport vositalarining gaz uskunasi or'natilgan qismi va moddiy qismini so'z holatda taqdim etish;

v) Yo'l varaqasiga texnik holati, ballonlar soni va uning geometrik hajmi to'g'risida ma'lumotlarni qayd qilib borish;

g) belgilangan tartibda avtotransport vositalariga STG yoqilg'isini quyish uchun ruxsatnoma olish;

d) avtotransport vositalarining texnik passportiga (maxsus varaq) va shuningdek, maxsus belgi yoki avtomobil qismlariga 0,5 aniqlikdagi ballonlarning geometrik hajmini, jami qiymatini yozish, shuningdek, maxsus plastinka yoki avtomobil qismlariga yoziladi.

e) STG yoqilg'isini bilan ishlaydigan transport vositasini boshqarish huquqini beruvchi guvohnoma va yoqilg'i quyishga ruxsatnoma hamda yo'l varaqasini taqdim qilish.

i) vakolatli shaxs (shaxslar)ga ishonchnoma hamda avtotransport vositalar soni, davlat belgilari va markasini ko'rsatgan holda yoqilg'i quyish uchun avtotransport vositalari ro'yxatini "TA'MINOTCHI"ga taqdim etish.

**3.6. "TA'MINOTCHI" majbur:**

a) Gaz uskunalari bilan jihozlangan avtotransport vositalarining asboblari va klapanlarining to'g'ri ishlashini tekshirish;

**3.7 "TA'MINOTCHI" huquqi:**

a) haydovchining STG yoqilg'isini bilan ishlaydigan avtotransport transport vositasini boshqarish huquqini beruvchi guvohnomasi, yonilg'i quyish uchun ruxsatnomasi va yo'l varaqasi borligini tekshirish;

**б) agar "ISTE'MOLCHI" ("Iste'molchi" xodimlari) belgilangan me'yorlarga, yoqilg'i quyish qoidalariga va ushbu shartnoma shartlariga rioya qilmasa, avtotransport vositalarga yonilg'i quymaslik huquqiga ega.**

## 4. GAZ HISOBI VA HISOB QILISH TARTIBI.

**4.1.** "ISTE'MOLCHI"ga etkazib beriladigan STG miqdori (hajmi) yoqilg'i quyish shoxobchasida o'rnatilgan gaz kolonkalarining ko'rsatkichlari bo'yicha **"TA'MINOTCHINING"** o'lchov asboblari bilan belgilanadi.

## 5. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI.

**5.1.** Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

5.2 "ISTE'MOLCHI" shartnoma bo'yicha to'lanmagan summa bo'yicha kechiktirilgan har bir kun uchun 0,4% miqdorida, lekin qarzdorlik summasining 50% dan ko'p bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

5.3 Ushbu shartnomada nazarda tutilmagan masalalarda tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga amal qiladilar.

5.4 Ushbu shartnoma bo'yicha kelishmovchiliklar muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi. Talabnoma buyurtma pochta orqali yuboriladi va 10 kun ichida tomonlar tomonidan ko'rib chiqiladi

5.5 Muzokaralar yo'li bilan hal etilmagan nizolar hal etish uchun Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudida hal etiladi.

## 6. FORS –MAJOR .

**6.1.** "TA'MINOTCHI" va "ISTE'MOLCHI" gaz yetkazib berish va qabul qilishni qisqartirish huquqiga ega va quyidagi hollarda buning uchun javobgar bo'lmaydi:

a) magistral gaz quvurlari, shahar gaz va elektr tarmoqlarida oldindan aytib bo'lmaydigan holatlar tufayli sodir bo'lgan avariyalarda;

b) yong'inlar, zilzilalar, suv toshqini va boshqa tabiiy ofatlar paytida;

v) magistral gaz quvurlari, shahar gaz va elektr tarmoqlarini muntazam ta'mirlash, tegishli sinovlar, shuningdek payvandlash ishlarini ishlab chiqarish paytida.

## 7. SHARTNOMA MUDDATI.

**7.1.** Ushbu shartnoma tomonlar imzolagan paytdan boshlab kuchga kiradi va 2022-yil 31-dekabrgacha amal qiladi. Agar uning amal qilish muddati tugagunga qadar tomonlardan hech biri shartnomani bekor qilish niyatini bildirmasa, shartnoma keyingi muddatga uzaytirilgan hisoblanadi. Shartnomani bekor qilish niyatida taraf boshqa tomonni bir oydan kechiktirmay yozma ravishda xabardor qilishi shart.

**7.2.** Shartnomaning bir nusxasi "TA'MINOTCHIDA", ikkinchi nusxasi "ISTE'MOLCHIDA" saqlanishi uchun ikki nusxada tuzildi.

**Shartnomaga ilova:** 1. Avtomobillar soni va markasi ko'rsatilgan gaz sarfi hisobi .
2. Ishonchli shaxsga berilgan ishonchnoma.

## 8.TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI.

| "TA'MINOTCHI" | "ISTE'MOLCHI" |
|---|---|
| **«GULSARA LYUKS» MChJ** | Главный ВТЭК Ташкентской области |
| **Toshkent shahri, Bektemir tumani** | Нурафшон шахар, Тошкент йули кучаси 90-уй |
| **Vodnik massivi 124** | Тел: 71-250-90-59 |
| **h/r 20 208 000 504 355 332 001** | Р/с: 2340 2000 3001 0000 1010 |
| **ATB Kapital Bank Bosh ofisi** | Л/с: 100021860274017076400054001 |
| **MFO 01 088 STIR 205 241 618** | ИНН каз: 201 122 919 МБЕХККМ г.Ташкент |
| **IFUT 47 300** | МФО: 00014 ИНН: 200 637 808 ОКЭД: 88100 |
| **Telefon 71 231-02-86** | |
| **Direktor** ______ **Zaxidov X.X.** | **Direktor** ______ |
| **M.O'** | **M.O'** |

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

YURIDIK SHAXSNI DAVLAT RO'YXATIGA O'TKAZISH TO'G'RISIDA

# GUVOHNOMA

Reestrdagi tartib raqami - 000206-02 № 000206

2005 yil "28" mart

Mazkur guvohnoma yuridik shaxs *"GULSARA LYUKS"* ga berilgan.

| | | |
|---|---|---|
| Tashkiliy-huquqiy shakli: | *Mas'uliyati cheklangan jamiyat* *Firma* | THSH (ОПФ) *1153* |
| Mulkchilik shakli: | *Jamoa* | MSH (ФС) *142* |
| Pochta manzili: | *VODNIK DAXASI 124 AYOQSH* | MHOBT (СОАТО) *1726264* |
| Yuridik shaxs kodi: | | KTUT (ОКПО) *19781796* |
| Tarmoq kodi: | *Taabiy gazni qayta ishlash* | XXTUT (ОКОНХ) *11232* |
| Soliq to'lovchining identifikasiya raqami: | | STIR (ИНН) *205241618* |

Qo'shimcha ma'lumotlar **Avval Hamza tumani Tadbirkorlik sub`ektlarini Ro`yxatdan o`tkazish inspektsiyasi tomonidan 11.10.2004 yilda 000390-7-conli reestrga kiritilgan.**

Vakolatli organ rahbari *A.A.Matkarimov*

GUVOHNOMANI QALBAKILASHTIRISH QONUN TOMONIDAN TAQIB QILINADI

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Ўзбекистон нефть маҳсулотлари ва газдан фойдаланишни назорат қилиш давлат инспекцияси "Ўздавнефтгазинспекция"

# ЛИЦЕНЗИЯ

АА № 0414

Мазкур лицензия билан "GULSARA LYUKS"
*(лицензия эгасининг тўлиқ номи)*
масъулияти чекланган жамияти
________________________________ га

Тошкент шаҳри, Бектемир тумани, Водник массивида жойлашган
*(рухсат этилган фаолият тури)*
АГТКШ орқали сиқилган табиий газни сотиш
________________________________ билан

шуғулланишга рухсат этилади.

Лицензия эгасининг жойлашган жойи (почта манзили): Тошкент шаҳри, Бектемир тумани, Водник массиви, 124-уй

Лицензия эгасининг солиқ тўловчи сифатидаги идентификация рақами: 205 241 618

Лицензия берилган сана: 2019 й. 26 февраль

Лицензиянинг амал қилиш муддати беш йил

Реестр бўйича тартиб рақами: № 358

Ваколатли шахс: Н. Агзамов ________
*(исми шарифи, фамилияси)* *(имзоси)*

М.Ў.

Лицензиянинг амал қилиш муддати ________ й. ________ гача узайтирилди.

Ваколатли шахс: ________ ________
*(исми шарифи, фамилияси)* *(имзоси)*

М.Ў.

Лицензиянинг амал қилиш муддати ________ й. ________ гача узайтирилди.

Ваколатли шахс: ________ ________
*(исми шарифи, фамилияси)* *(имзоси)*

М.Ў.

"DAVLAT BELGISI" DICHB TBF